
BIR TERIMDA 41 SENTNERDAN

Joriy xo'jalik yilida 19,54 gektar maydonga chigit qadagan "Zarinabonu yerlari" fermer xo'jaligi 79 tonna paxta topshirish bo'yicha shartnoma imzolagan edi. Agrotexnik tadbirlarni vaqtida o'tkazgan fermer xo'jaligida paxtadan mo'l hosil yetishtirildi.

Birinchi terimdayoq gektaridan 41 syentnerdan jami 79,9 tonna qimmatbaho sanoat xomashyosi yig'ishtirib olindi. Xo'jalikda shartnoma rejasini oshirib hosil yig'ishtirib olishda Chek Nasriddin mahallasining uyushmagan aholisining xizmati katta bo'ldi.

Ayni paytda xo'jalikda kuzgi bug'doy ekish uchun yer tayyorlash bilan birga bor paxta hosili yig'ishtirib olish taraddudi ko'rilyapti.

2023-09-27 16:27:31